

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.12.2022.I.111.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

AVEZOV HUMOYUN ILXOMOVICH

**SAMARQAND VILOYATIDA YONG‘OQ ISHLAB CHIQRISH VA
SOTISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI**

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi-2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of the Dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Avezov Humoyun Ilxomovich

Samarqand viloyatida yong'oq ishlab chiqarish va sotish samaradorligini
oshirish imkoniyatlari.....3

Авезов Хумоюн Илхомович

Возможности повышения эффективности производства и продажи
грецкого ореха в Самаркандской области..... 27

Avezov Khumoyun Ilxomovich

Possibilities of increasing the efficiency of walnut production and sale in
Samarkand region 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.12.2022.I.111.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

AVEZOV HUMOYUN ILXOMOVICH

**SAMARQAND VILOYATIDA YONG‘OQ ISHLAB CHIQRISH VA
SOTISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI**

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi-2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt2717 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qmii.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axrorov Farxod Baxriddinovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Rasmiy opponenlar:

Rustamova Iroda Baxramjanovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Fayziyeva Shirin Shodmonovna
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor.

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/29.12.2022.I.111.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____soat___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 226-uy. Tel.: (99875) 221-09-23, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: (99875) 221-09-23, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____dagi ___raqamli reyestr bayonnomasi).

S.N.Xamrayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

N.A.Ochilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, i.f.f.d. (PhD)

R.X.Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda quruq mevalarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Buning asosiy sabablari iste‘molchilarni yil davomida ham uzluksiz quritilgan mahsulotlar bilan ta‘minlanishi, uzoq muddatda sifatli saqlanishi, transportirovka qilish qulayligi kabi ustunliklarga ega bo‘lishidir. Jumladan yong‘oqmevalilarga sog‘lom va ozuqaviy jihatdan boy oziq-ovqat mahsulot bo‘lganligi tufayli talab kuchli hisoblanadi. Yong‘oqlar an‘anaviy oshxona, qandolat va gazaklarda keng qo‘llaniladi. Yong‘oqlarning sog‘liq uchun muhimligi, jumladan, yog‘, oqsil, efir moylari, xushbo‘y moddalar, temir va kobalt tuzlariga juda boy va antioksidant xususiyatlari sababli talab ortib bormoqda. Quruqmevalarga qiziqishning ortishi va ularni ishlab chiqarishni real ko‘paytirish zarurati yong‘oqning jahon iste‘molining barqaror o‘sishi, jahon oziq-ovqat madaniyatining tabiiy mahsulotlarni iste‘mol qilishga o‘zgarishi bilan izohlanadi.

Global yong‘oq ishlab chiqarish sohasida so‘nggi o‘n yil davomida yiliga taxminan 5% miqdorida barqaror o‘shish kuzatildi. To‘rtta asosiy hudud – Xitoy (48 %), AQSh (27 %), Chili (7 %) va Yevropa Ittifoqi (6 %) – ishlab chiqarishda yetakchilik qilmoqda va ular birgalikda dunyo yong‘oq ishlab chiqarishining 89 foizini tashkil etadi. Xitoy va Chili yillik 5 % va 13 % o‘shish sur‘atini qayd etgan bo‘lsa, AQSh va Yevropa Ittifoqida o‘shish sur‘ati so‘nggi o‘n mavsumda nisbatan past bo‘lib, yillik 4 foizini tashkil etgan¹.

O‘zbekiston yong‘oq ishlab chiqarish va qayta ishlash uchun qulay tabiiy iqlim sharoitlari va qulay resurs salohiyatiga ega bo‘lgan mamlakatlardan biri sanaladi. Mintaqaning tuproq iqlim sharoitlari yong‘oq ishlab chiqarishni sanoat darajasida tashkil etishga imkon beradi. Yong‘oqning mag‘zidan tashqari barcha vegetativ organlari (yog‘ochi, barglari, mevasi, yashil po‘stlog‘i, po‘chog‘i, hatto yong‘oq mag‘zi o‘rtasidagi plastinkasi) iqtisodiyot va ishlab chiqarish sanoati turli tarmoqlarida ishlatilib, yong‘oqdan chiqindisiz texnologiya sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, yong‘oq yetishtirish, qayta ishlash, ishlab chiqarish va sotish kabilarni o‘z ichiga olgan butun texnologik zanjirni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi yagona sanoat tizimini yo‘lga qo‘yish ilm-fan va amaliyot uchun muhim vazifalar qatoriga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyundagi “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3025-son qarori, 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4575-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti sohasini yanada rivojlantirish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika ilm-fan va texnologiya-

¹ <https://www.morningagclips.com/global-walnut-market-international-trade-production-expansion-slowng-down/#:~:text=The%20global%20walnut%20production%20landscape,of%20the%20world's%20walnut%20output.>

lari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti sohasini rivojlantirish hamda yong‘oq ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolari iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan xorijiy iqtisodchi olimlardan Z.A.Ibragimov, G.M.Kulibekov, A.I.Torba, Y.A.Vasin, N.A.Trusheva, T.T.Nguyen, A.A.Xashir, K.N.Fayzullayeva²lar, mahalliy olimlardan respublikamiz sharoitida yong‘oq yetishtirish sohasining iqtisodiy muammolari yechimlarini topish, sohani rivojlantirish masalalariga D.Yormatova, M.Abdujabborov, A.Inobatov, B.Raxmonova, B.Nosirov, N.Xushmatov³ning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Shunga qaramasdan, yong‘oq yetishtirishni rivojlantirish, uni qayta ishlash va eksportga yo‘naltirish borasida so‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, dasturlar ijrosini ta‘minlash, mavjud muammolar yechimlari yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, ularni joriy qilib borish talab etilmoqda. Yong‘oq ishlab chiqarish va qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish, tashkiliy muammolarini hal etish bo‘yicha yurtimizda ilmiy izlanishlar boshlanganiga ko‘p bo‘lmadi. Shu sababdan mazkur dissertatsiya ishi uchun yong‘oq ishlab chiqarishning iqtisodiy masalalarini hal etish bilan bog‘liq mavzu tanlab olindi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya ishi mamlakatimiz agrar siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan bog‘dorchilikda samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar bilan bog‘liq bo‘lib, u Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida “Raqaqli iqtisodiyotga o‘tish davrida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish” mavzusida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tarkibiy qismidir.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyatida yong‘oq ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

² Ибрагимов З. А. Обоснование способов создания и повышения продуктивности промышленных плантаций грецкого ореха в Азербайджанской ССР. дис. д-ра с.-х. наук. 2007; Кулибеков Г. М. Уборка грецких орехов с крупноштабмовых деревьев машиной с импульсным вибровозбудителем. дис. д-ра с.-х. наук. 1984; Торба А. И. Селекция ореха грецкого на востоке Украины. дис. д-ра с.-х. наук. 1984; Васин Е. А. Отбор и оценка перспективных форм ореха грецкого для средней полосы России. дис. д-ра с.-х. наук. 2004; Трушева Н. А. Оценка и перспективы использования коллекционного генофонда ореха грецкого на Северо-Западном Кавказе. дис. д-ра с.-х. наук. 2007; Нгуен Т. Т. Оценка исходного материала для селекции некоторых видов рода *Juglans L.* в условиях Брянской области. дис. д-ра с.-х. наук. 2015; Хашир А. А. Организационно-экономический механизм повышения эффективности промышленной переработки орехов в России. дис. д-ра с.-х. наук. 2004; Файзуллаева, К. Н. Особенности организации и развития сельского хозяйства горных районов Таджикистана. дис. д-ра с.-х. наук. 2004.

³ D.Yormatova, M.Abdujabborov Pekan yong‘og‘i – serdaromad meva. //O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 2022. №1. – B.43-44. <https://agro-olam.uz/pekan-yongogi/>; Inobatov A.B. Grek yong‘og‘ining yetishtirishda istiqbolli navlardan foydalanish samaradorligi. -T. -Agroiqtisodiyot jurnali. -№1. -2021. -B.66-69; Raxmonova B., O‘zbekistonda Eron tajribasi asosida yong‘oq yetishtirishning samaradorligi. //Iqtisodiyotda innovatsiyalar. №3 (2020). 47-53-bet. ISSN 2181-9491; Nosirov B. O‘zbekistonda yong‘oq ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari. <https://www.researchgate.net/publication/347360735>; N.Xushmatov Grek yong‘og‘i yetishtirishda xarajatlarni tejash. //Agro hidro NEWS ijtimoiy-iqtisodiy jurnal. – №10. 2020. – B.18-19.

Tadqiqotning vazifalari:

ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi, turlari va ko'rsatkichlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan asoslash;

yong'oq ishlab chiqarish samaradorligining ahamiyati, omillari va shartlarini ilmiy asoslash;

yong'oqchilik sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni tahlil qilgan holda mamlakatimiz uchun ahamiyatli yo'nalishlar bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Samarqand viloyatida yong'oq ishlab chiqarish va sotishning hozirgi holatini tahlil qilish;

yong'oq yetishtirishda agrotexnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi tahlilini o'tkazish;

yong'oq yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash;

Samarqand viloyatida yong'oq ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

yong'oq ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini aniqlash;

Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi subyektlarida yong'oq ishlab chiqarish hajmining 2024-2030 – yillar uchun mo'ljallangan prognoz parametrlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida respublikada yong'oq ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tanlab olingan. Monografik tadqiqotlar Samarqand viloyatining tog' va tog'oldi hududlari dehqon xo'jaliklari misolida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning predmeti xo'jalik yurituvchi subyektlarida yong'oq ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq jarayonlarda vujudga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, anketa so'rov, qiyosiy va dinamik tahlil, SWOT-tahlil, tizimli tahlil, regression va korrelyatsion tahlil va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatida yong'oqchilik sohasining qiymat zanjirini takomillashtirish va logistik yondashuv asosida ishtirokchilar daromadlarini 16 foizga oshirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yong'oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etish orqali aholi daromadini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari yaratilgan va tarmoq uchun 12 foizga takomillashgan kanal modeli ishlab chiqilgan;

yong'oqni qayta ishlash va eksport qilishning xalqaro ilg'or tajribalaridan foydalanib, xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarish va sotish ishlarini samarali tashkil qilish mexanizmlari 9 foizga takomillashtirilgan;

Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyati doirasida 2024–2030 yillarga mo'ljallangan yong'oq yetishtirish prognoz parametrlari 2030-yilgacha yong'oq ishlab chiqarish miqdori, ya'ni yalpi yong'oq hosili 21617,9 tonnaga oshishi yoki 125,1 foizga yong'oq ishlab chiqarish ortishi prognozi tahlillar natijasida asoslanib ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yong‘oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etish orqali aholi daromadini oshirishning tashkiliy iqtisodiy asoslari yaratilgan va tarmoq uchun takomillashgan kanal modeli ishlab chiqilgan;

tuman va qishloqlardagi yong‘oq yetishtirish salohiyatdan kelib chiqib mahsulotni qayta ishlash jarayonlari bilan tizimli ishlash bo‘yicha yo‘nalishlari asoslangan;

“Yevropa Ittifoqi bozorlariga yong‘oq eksporti” nomli uslubiy qo‘llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan. Natijada ushbu qo‘llanma agrobiznes sohasi mutaxassislari, olimlari va oliy ta‘lim muassasalari talabalari, magistrarlari va yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilarga hamda yong‘oq bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarga muhim ilmiy uslubiy qo‘llanma sifatida xizmat qilgan;

qishloq xo‘jaligi subyektlari faoliyati doirasida Samarqand viloyatida yong‘oq yetishtirishning 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlari ARIMA modelida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plami, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, respondentlar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar yong‘oqchilikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini hamda yong‘oqni iqtisodiy samardorligini oshirish, yong‘oq yetishtiruvchi, qayta ishlovchi xo‘jaliklar faoliyatining global bozor talabiga to‘liqroq moslashishi orqali ishlab chiqarish samardorligini oshirish, yong‘oqni qayta ishlashda qo‘shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish natijasida ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi daromadini oshirish borasida nazariy bilimlarni oshirishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan tegishli xo‘jaliklarda yong‘oqni yetishtirish, qayta ishlash, ichki va tashqi bozor talabidan kelib chiqqan holda, mahsulotga tashqi ko‘rinish berish (po‘chog‘idan tozalash, saralash, qadoqlash kabi) bilan bog‘liq marketing tizimini joriy qilish orqali yetishtirilgan mahsulotning tovarlilik darajasini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish yo‘nalishidagi dasturlarni ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarida “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Fermar xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti”, “Biznesni rejalashtirish” fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini tuzish va ta‘lim jarayonida foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyatida yong‘oq ishlab chiqarish va sotish samardorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Samarqand viloyatida yong‘oq yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirok etuvchilarning daromadlari ulushi iqtisodiy baholangan, birlamchi va ikkilamchi ma‘lumotlarga asoslangan tahlillar orqali yong‘oqchilik sanoatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlangan, shuningdek yong‘oq yetishtirish,

qayta ishlash va eksportning iqtisodiy ta'sirini yoritib, qiymat zanjirini takomillashtirish va hududning global bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va "Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi"da amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-04-475-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur taklif asosida yong'oq yetishtirish va sotish qiymat zanjiridagi ishtirokchilar daromadlarini 16 foizga oshirishga imkon beradi;

yong'oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini (zamonaviy marketing usullarini) tashkil etish orqali aholi daromadini oshirishning tashkiliy iqtisodiy asoslari yaratilib yong'oq yetishtiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarini qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari taklif etilgani holda yong'oq yetishtiruvchi xo'jaliklar uchun qo'shimcha qiymat va eksport marketingi integratsiyasi shakllantirilgan va tarmoq uchun 12 foizga takomillashgan kanal modeli ishlab chiqilgan va "Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi"da amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-04-475-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur taklifni joriy etilishi yong'oq yetishtirish va sotish bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyektlari daromadini oshirishga xizmat qiladi;

yong'oqni qayta ishlash va eksport qilishning xalqaro ilg'or tajribalardan foydalanib, xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarish va sotish ishlarini samarali tashkil qilish mexanizmlarini 9 foizga takomillashtirish bo'yicha taklif, tavsiyalar tayyorlangan va "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish" agentligi, "UzTest" DMning "Mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish byurosi"da, shuningdek "Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi"da amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-04-475-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur taklif o'z mahsulotlarini eksport qilish yoki kengaytirish jarayonini boshlash uchun agrobiznes vakillariga yetarlicha amaliy ma'lumot berish bilan birgalikda xorijiy davlatlarning mahsulotlarga qonuniy va bozor talablari, shu jumladan tariflar, narxlash mexanizmlari, ishlab chiqarish qoidalari, sanitariya, fitosanitariya choralari va eksport uchun boshqa texnik talablar, shuningdek chet eldagi asosiy bozor segmentlari xaridorlarining qadoqlash shartlari, yetkazib berish muddati, miqdori va sifati bo'yicha potensial eksportchilarga jarayonlarni yaxshiroq tushunishga va o'zlarining eksport strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi;

ichki bozorni to'yintirish va eksportni kengaytirishga qaratilgan qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyati doirasida Samarqand viloyatida grek yong'og'ini yetishtirishning 2030-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari ARIMA modelida ishlab chiqilgan va "Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi"da amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-04-475-son ma'lumotnomasi). Natijada Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi subyektlari tomonidan 2030-yilgacha yong'oq ishlab

chiqarish miqdori, ya'ni yalpi yong'oq hosili 21617,9 tonnaga oshishi, ya'ni viloyatda 2023-yilda 17285 tonna yong'oq ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2030-yilda 2023-yilga nisbatan 4332,9 tonna yoki 125,1 foizga yong'oq ishlab chiqarish ortishi prognozi tahlillar natijasida asoslangan. Ushbu yangilikni asosini tashkil etuvchi mexanizmlarni qo'llanishi yong'oq ishlab chiqarishni sezilarli oshirishga erishiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika darajasidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta, jumladan, 1 ta uslubiy qo'llanma, va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, shundan 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi, zarurati, maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti, foydalanilgan tadqiqot usullari bayon etilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi yoritilgan hamda nashr qilingan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Yong'oq ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi, turlari, ahamiyati, omillari va shartlari o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, yong'oq bozorini rivojlantirish va sotish samaradorligini oshirish bo'yicha xorij tajribalarining ahamiyatli jihatlari tahlil etilib, mamlakatimizga tadbiq etish mumkin bo'lgan yo'nalishlari o'rin olgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlikning mohiyati, tushunchasiga ko'plab har xil qarashlar mavjudligi kabi, uning har xil mezonlari va ko'rsatkichlari tasnif qilinadi. Ko'pchilik mualliflar samaradorlik nisbiy ko'rsatkich deb ta'kidlab, u olingan (erishilgan) natija bilan xarajatlar nisbati orqali aniqlanishini tavsiya beradilar. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi, samara hajmini, uni olishda belgilagan xarajatlar va resurslarga nisbati sifatida namoyon bo'ladi. Binobarin, u, birinchidan, samara miqdorini, ikkinchidan, iste'mol qilinadigan resurslar hajmini o'lchashni o'z ichiga oladi.

Mavzuni nazariy o'rganishlarimizdan kelib chiqib, – qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini baholashda uning barcha turlarining o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda o'rganish ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asosli bo'ladi, degan xulosaga kelindi. Bizning nazarimizda, qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik kam mehnat va moddiy resurslar sarflab, atrof muhit va ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda resurs sarfi miqdori hisobiga olinadigan yakuniy sof foyda miqdorida o'z aksini topadi.

Tizimli yondashuv metodologiyasi va har qanday tadqiqot obyektini bir butun sifatida ko'rib chiqish zaruriyatiga asoslanib, bizningcha, turli xil muammolarni hal

qilishni tavsiflovchi samaradorlikning to'rt jihatini ajratib ko'rsatish kerak: texnologik (ishlab chiqarish), iqtisodiy (iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash), ijtimoiy (insonning ijtimoiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish), ekologik (atrof-muhitni muhofaza qilish holati). Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyatini bunday tushunish uni o'lchash yo'nalishini oldindan belgilab beradi. Mumkin bo'lgan maksimal natijaga erishish shubhasiz, ekologik oqibatlarni, hisobga olgan holda, ko'plab ko'rsatkichlar va omillar (jarayonga ta'sir qiluvchi sabab yoki shart-sharoitlar) bilan bog'liq bo'lishi kerak (1-rasm).



1-rasm. Yong'oq ishlab chiqarish samaradorligi shakllanishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar va ularning umumlashtirilgan tizimi⁴

Yong'oq bozorini rivojlantirishda mavjud muammolarni aniqlash va soha rivojiga ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro ta'sir darajalarini baholashda, sotish samaradorligini oshirishning turli metod, model va yondashuvlardan tashqari xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, yong'oqchilik sohasini rivojlantirgan mamlakatlar misolida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, mexanizmlar va ularning muhim jihatlari, shuningdek, yong'oq yetishtirish texnologiyalari, sohaga berilayotgan e'tibor va iqtisodiy rag'batlantirish yo'nalishlari hamda xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini tadqiq etish va mamlakatimiz tabiiy-iqlim sharoitiga mos kelgan yo'nalishlarini ajratib olish maqsadga muvofiqdir.

⁴Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Yong‘oq bozorini rivojlantirish va sotish samaradorligini oshirish borasida xorijiy tajribalarni o‘rganish va uni tahlillaridan kelib chiqib yong‘oqchilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi amaliy choralarni mamlakatimizda joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Tashqi bozorda qo‘shilgan qiymatni oshirish maqsadida, yong‘oqni qayta ishlash dasturini ishlab chiqish va joriy qilish;

yong‘oq ishlab chiqarish xususiyatlarini inobatga olib, yong‘oq ishlab chiqarish xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida subsidiya va kompensatsiyalar joriy etilishi.

Yong‘oqchilik sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, amaliy loyihalarni amalga oshirishda AQSH va Xitoy tajribalari bunga misol bo‘la oladi.

Dissertatsiyaning **“Samarqand viloyatida yong‘oq ishlab chiqarish holati va rivojlanish istiqbollari baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand viloyatida yong‘oq ishlab chiqarish va sotishning hozirgi holati, yong‘oq yetishtirish texnologiyalari iqtisodiy samaradorligi tahlil etilgan hamda yong‘oq yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushi iqtisodiy baholangan va tegishli xulosalar berilgan.

Yong‘oqchilik sohasining samaradorlik ko‘rsatkichlarini 3 darajaga ajratib tadqiq etish va to‘laqonli tahlil etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval.

Yong‘oq ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari⁵

Mamlakat darajasida	Tarmoq darajasida	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar darajasida
Ishchi kuchining samara-dorligi (mehnat unumdorligi)	Yong‘oq yetishtirishda texnologiyalarni joriy etish darajasi (innovatsiyalar va texnologik o‘shish)	Yong‘oq plantatsiyalarining hosildorligi va hosildorlik o‘zgarishining dinamikasi
Suv va yer resurslari samaradorligi	Hududlararo iqtisodiy aloqalar va integratsiya	Resurslardan foydalanish samaradorligi (texnika, yer va mehnat resurslari)
Qayta ishlangan yong‘oq mahsulotlari ulushi	Mahalliy bozorda importni almashtirish imkoniyatlari	Xarajatlar tarkibi (ish haqi, texnika xarajatlari, logistika, o‘g‘itlar va boshqalar)
Tabiiy resurslardan foydalanishning ekologik jihatlari	Mahsulotni eksport qilish geografiyasi (mamlakatlar kesimida)	Mahsulot tannarxi va uni pasaytirish imkoniyatlari va o‘z-o‘zini ta‘minlash darajasi
Tashqi va ichki bozorlarda yong‘oq mahsulotlarini sotish hajmi	Mamlakat yong‘oq yetishtirish umumiy hajmida hududlarning ulushi	Yong‘oqchilik xo‘jaliklarida xarajatlar rentabelligi darajasi
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yong‘oq mahsulotlari ishlab chiqarish va iste‘mol hajmi	Ichki bozorda yong‘oq mahsulotlarining ulushi	Yong‘oqchilik xo‘jaliklarining fond bilan qurollanganlik va ta‘minlanganlik ko‘rsatkichlari
YaHMning umumiy hajmida yong‘oq yetishtirish va qayta ishlashning ulushi	Yong‘oq mahsulotlarining import va eksport ulushi	Yong‘oq ishlab chiqarish va sotish xarajatlari
YaIMning umumiy hajmida yong‘oqchilikning ulushi		Yong‘oqchilik xo‘jaliklarining yalpi daromadi, foydasi va sof foydasi

⁵ Muallif ilmiy tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, eng kam darajadagi hosildorlik va mahsulot narxini chakana baholardan 25-30 foiz kam baholarda hisoblangan holatda ham an'anaviy usulda mahsulot yetishtirishda har gektar yerdan olinadigan daromad 42059-51467 ming so'mni, intensiv usulda esa 86838-103549 ming so'mni tashkil etadi. Mahsulot ishlab chiqarishning rentabellik darajalari mos ravishda 150,4 va 329,5 foizga teng bo'ladi (2-jadval).

2-jadval.

Yong'oq yetishtirish texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining taqqoslama tahlili (2023 yil baholarida)⁶

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	An'anaviy texnologiyada, navlar bo'yicha		Intensiv texnologiyada, navlar bo'yicha		
		Ideal	Chandler	Ideal	Chandler	
1 gektar yer maydonida yong'oqzor barpo etish xarajatlari	ming so'm	13164	14926	133657	136755	
1 gektar yong'oqzorni yillik parvarishlash xarajatlari (to'liq hosilga kirganda)	Jami	14577	15491	19446	22263	
	Ish haqi	5559	5915	7414	7919	
	Moddiy va boshqalar	9018	9576	12032	14344	
Yong'oqzorlarning asosiy hosilga kirish muddatlari	5 yil	s/ga	5,3	8,4	10,5	16,4
	7 yil	s/ga	10,1	15,3	22,2	32,1
	10-15 yil	s/ga	25	31,2	54,4	65,5
O'rtacha 1 gektar yong'oqzordan (to'liq hosilga kirganda)	Tushum	ming so'm	36500	45552	79424	95630
	Daromad	ming so'm	42059	51467	86838	103549
	Sof foyda	ming so'm	21923	30061	59978	73367
Rentabellik darajasi	%	150,4	194,1	308,4	329,5	

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar o'rtasidagi tendensiyalar asosan yong'oq yetishtirish usullari, yong'oq navlari, yer maydonlari relfi, ekish sxemasi, ya'ni har gektarga ko'chat sarfi hisobiga yuzaga kelgan. Yong'oqzorlarni barpo etishda ushbu hisob-kitoblar mahsulot yetishtiruvchilar va investorlarning turli iqtisodiy va moliyaviy xatarlarni baholashida tegishli xulosalarni chiqarishda asos bo'lib xizmat qiladi. Hisob-kitoblarga asoslanib bir gektar yong'oqzor barpo etish bilan bog'liq xarajatlar o'rtasidagi farqlar intensiv usulda 8-9 martaga yuqoriligini ko'rish mumkin. Vaholanki, quyidagi jihatlar orqali intensiv usulda yong'oq yetishtirish samarali ekanligini ta'kidlash mumkin:

-intensiv usulda bir gektar yer maydoniga joylashtiriladigan ko'chatlar soni 3-4 marta ko'p bo'lishi;

-intensiv usulda tomchilatib sug'orish orqali suvdan va mineral o'g'itlardan samarali foydalanish imkoniyatlarining yuqoriligi;

⁶ "Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulotlarni yetishtirish bo'yicha namunaviy texnologik kartalar" va muallifning ilmiy tadqiqotlari asosida hisob kitob qilingan.

- mahsulot sifatini nazorat qilish va boshqarishning qulayligi;
- intensiv usulda barpo etilgan bog'larni tez mevaga kirishi va tegishli agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatining yuqoriligi;
- mahsulotni yig'ishtirib olish va boshqa agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishning qulayligi;
- intensiv usulda bog' barpo etish bilan bog'liq xarajatlarning 8-9 marta yuqori bo'lishiga qaramay, ushbu xarajatlar yuqori resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish hisobiga bog' to'liq hosilga kirgandan so'ng 3-4 yil muddatda to'liq qoplanishi va boshqalar. Shuningdek, yong'oq yetishtirishda resurslar samaradorligi ilmiy asosda hisob-kitob qilindi.

Hozirda dehqon, tomorqa va fermer xo'jaliklarida yong'oq bog'larida tijorat maqsadida yetishtirilmoqda. Chandler yong'og'ini maqsadli va keng ko'lamli yetishtirish Samarqandda 2017-yilda boshlangan va hozirga qadar davom etib kelmoqda.

Yong'oq yetishtirishning qiymat zanjirini iqtisodiy baholash juda muhim sanaladi. Xususan, narx shakllanishi va daromad taqsimotini chuqur tahlil qilish orqali qiymat zanjiridagi barcha ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish mumkin; fermerlar va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning daromad ulushlarini aniqlash orqali ularni qo'shimcha moliyaviy va texnik yordam bilan ta'minlash mumkin, bu esa ularga ko'proq daromad olish imkonini beradi; yong'oq qiymat zanjiridagi ishtirokchilarning daromadlarini oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi, bu esa iqtisodiyotga qo'shimcha daromad olib keladi.

Yong'oq yetishtirishda qiymat zanjirining asosiy ishtirokchilari ko'chat, pestitsid va o'g'it yetkazib beruvchilar, xo'jalik yurituvchi subyektlar (fermer, dehqon, tomorqa xo'jaliklari), vositachilar va ulgurji sotuvchilar, chakana sotuvchilar, supermarketlar va yakuniy iste'molchilar (mahalliy va xorijiy) hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida yong'oq ekinining uch, besh va yetti yillik hosil berish davridagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval.

Yong'oq yetishtirishda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari (ekin ekilgan yillar bo'yicha, Chandler navi)⁷

№	Ko'rsatkich	Ekin ekilganidan 3-yil	Ekin ekilganidan 5-yil	Ekin ekilganidan 7-yil
1	Yongoq hosili (po'choqli)	140 kg	700 kg	1700 kg
2	O'rtacha ulgurji narx, po'choqli	45 ming so'm/kg	45 ming so'm/kg	45 ming so'm/kg
3	Daromad, ming so'm	6300	31 500	76 500
4	Umumiy operatsion xarajat, ming so'm	12400	13200	14800
5	Foyda, ming so'm	-6 100	18300	61 700

Uch yillik davrda yong'oq hosili 140 kg, besh yillikda 700 kg va yetti yillikda 1700 kg gacha ortgan. Bu hosildorlikning vaqt o'tishi bilan sezilarli oshishini

⁷ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan hisoblangan.

ko'rsatadi. O'rtacha ulgurji narxi (po'choqli) tadqiqot davrida 45 ming so'm/kg bo'lgan va bu shartli ravishda hisob ishlarida foydalanilgan.

Uch yillik yong'oqzordan zarar kuzatilgan bo'lsada, beshinchi yilida 18,3 mln. so'm va yettinchi yilida esa 61,7 mln. so'm sof foyda keltirgan. Bu yong'oq plantat-siyasining rentabellik darajasining vaqt o'tishi bilan oshib borishini ko'rsatadi.

Yong'oq ekini ekilganidan keyin dastlabki yillarda daromad past yoki salbiy bo'lgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan hosil miqdori va foyda ortadi. Bu, yong'oq yetishtirishni uzoq muddatli investitsiya sifatida qarash mumkinligini ko'rsatadi. Barcha ko'p yillik o'simliklar singari Chandler navli yong'oq ham dastlabki bosqichda daromad keltirishi uchun vaqt talab qiladi. To'liq hosil olish davrida daromad yuqori bo'lganda foyda ham yuqori bo'ladi. Hosildorlik darajasi oshgani sari har kilogramm yong'oq yetishtirish uchun xarajat kamayadi. Past hosildorlikda bu xarajat 15 ming so'mni, o'rtacha hosildorlikda 10,76 ming so'mni va yuqori hosildorlikda 9 ming so'mni tashkil etadi. Hosildorlik oshgan sari foyda ham ortib boradi. Past hosildorlikda bir kg uchun foyda 30 ming so'm, o'rtacha hosildorlikda 33,2 ming so'm va yuqori hosildorlikda 36 ming so'mni tashkil etadi. Shuningdek, hosildorlik oshishi bilan marjinal foydaning nisbiy ko'rsatkichi oshib borgan, ya'ni hosildorlik past bo'lganda ushbu ko'rsatkich 67%, o'rtacha hosildorlikda 76% va yuqori hosildorlikda 80% ni tashkil etgan. Demak, yuqori hosildorlik darajasiga erishish orqali xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish imkoniyati mavjud (4-jadval).

4-jadval.

Yong'oq yetishtirishda hosildorlik darajasiga qarab iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari (Chandler navi)⁸

	Ko'rsatkichlar	Past hosildorlik (1,5 t/ga)	O'rtacha hosildorlik (2,3 t/ga)	Yuqori hosildorlik (3,0 t/ga)
1	O'rtacha ulgurji narx (po'choqli)	45 ming so'm/kg	45 ming so'm/kg	45 ming so'm/kg
2	Umumiy operatsion xarajat, ming so'm	22500	24750	27000
3	Daromad, ming so'm	67500	103500	135000
4	Foyda, ming so'm	45 000	78750	108 000
5	1 kg uchun ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm	15	10,76	9
6	Bir kg uchun olingan marjinal foyda, ming so'm	30	34,2	36
7	Marjinal foydaning nisbiy ko'rsatkichi, %	66,7%	76%	80%

Tadqiqot jarayonida yong'oq yetishtirish, qayta ishlash va sotish qiymat zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar tahlili so'rovnomasida amalga oshirildi va yong'oq qiymat zanjiridagi gorizontaal hamda vertikal tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar aniqlandi. Vertikal munosabatlar rasmiylashmagan bo'lsa-da, ular ko'p hollarda barqaror. Ayniqsa, vositachilar va chakana sotuvchilar o'rtasidagi og'zaki kelishuvlar ishonchga asoslangan aloqalarni rivojlantirishga xizmat

⁸ Muallif hisob-kitobi va so'rovnomasida natijalariga asoslangan.

qilmoqda. Umumiy qilib aytganda, qiymat zanjirida rasmiy kelishuvlarni kuchaytirish, narx va sifat muvozanatini ta'minlash, shuningdek, bozordagi raqobatni oshirish ishtirokchilar manfaatlarini yaxshiroq himoya qilish va barqaror hamkorlikni yo'lga qo'yishda muhim o'rin tutadi.

O'tkazilgan SWOT tahlilga asoslanib shuni aytish mumkinki, zaif tomonlarni kuchli tomonlarga aylantirish, ya'ni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish lozim (5-jadval). Bozorga kirish uchun davlat ko'magida logistik tizimlarni rivojlantirish mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorda brendlash asosida yangi bozorlarni zabt etish, suv tejash texnologiyalari va samarali mehnat taqsimoti orqali resurslardan foydalanishni takomillashtirish orqali Samarqand viloyatida yong'oqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlash uchun yo'l xaritasi bo'ladi degan xulosaga kelish mumkin.


5-jadval.

Yong'oq ishlab chiqarish va sotish qiymat zanjiri bo'yicha SWOT tahlili⁹

Kuchli tomonlar (Strengths):	Zaif tomonlar (Weaknesses):
<ol style="list-style-type: none"> 1. Samarqand viloyatida yong'oq yetishtirishning uzoq tarixiy an'analari mavjudligi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tajribasini oshirishga xizmat qiladi. 2. Viloyatning iqlimi yong'oq yetishtirish uchun juda mos kelib, bu hosildorlikni yuqori darajada saqlashga yordam beradi. 3. Qayta ishlash va qadoqlash jarayonlari qiymatni sezilarli darajada oshiradi. 4. Samarqand viloyatida yetishtirilgan yong'oqlar xalqaro bozorlarda yuqori talabga ega. 5. Mahalliy sharoitga moslashgan ko'plab mavjud va tanlangan navlar. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qayta ishlash va saqlash infratuzilmasi yetish-masligi dehqonlar va fermerlarning mahsulot sifati hamda miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 2. Ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarga kirishdagi muammolar, bu ularning daromadlarini kamaytiradi. 3. Yetishtirish va qayta ishlash jarayonlari uchun sarflanadigan xarajatlar yuqori bo'lishi mumkin. 4. Yangi navlar uchun moslashtirilmagan agrotexnika va zararkunandalarga qarshi kurash usullarining yetishmasligi hosildorlikni kamaytiradi.
Imkoniyatlar (Opportunities):	Tahdidlar (Threats):
<ol style="list-style-type: none"> 1. Yangi navlar va zamonaviy agrotexnologiyalar kiritilishi hosildorlik va mahsulot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 2. Yangi xalqaro bozorlarga kirish orqali eksport hajmini oshirish imkoniyati mavjud. 3. Dehqonlar kooperativlari orqali savdolanish imkoniyatlarini oshirish va bozorga to'g'ridan-to'g'ri kirishni ta'minlash. 4. Qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish orqali qo'shilgan qiymatni oshirish. 5. Ichki va xalqaro bozorda yong'oq mahsulotlariga yuqori talab. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Iqlim o'zgarishlari va ob-havo sharoitlari hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. 2. Xalqaro va mahalliy bozorlarda raqobatning oshishi dehqon va fermerlarning daromadlarini kamaytiradi. 3. Iqtisodiy va siyosiy noaniqliklar bozorga kirish va savdo jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. 4. Mahalliy resurslar, shu jumladan suv va mehnat resurslarining yetishmasligi qiymat zanjirini uzluksiz ishlashini qiyinlashtiradi.

⁹ Muallif ilmiy tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

Yong‘oq ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirishning mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hozirda uyushma, fermer va dehqon xo‘jaliklari ko‘rinishida faoliyat ko‘rsatmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yong‘oq yetishtirish va sotish qiymat zanjirida asosiy bo‘g‘inidagi yetishtiruvchilar, qayta ishlovchilar va eksportchilar daromad ulushi oshirish mexanizmi joriy etish maqsadga muvofiq (2-rasm).



2-rasm. Yong‘oq qiymat zanjiridagi asosiy ishtirokchilar daromad ulushlarini oshirish mexanizmi¹⁰

Agrotexnologiyalarni joriy etish (masalan, suvni tejovchi sug‘orish tizimlari, yuqori mahsuldor navlarni yetishtirish) natijasida hosil hajmi ortadi. Bu nafaqat ishlab chiqaruvchilar mahsulotni ko‘proq yetishtirishiga, balki xarajatlarni kamaytirish orqali sof foydaning oshishiga yordam beradi. Organik yong‘oq yetishtirish texnologiyalarini kengaytirish bilan premium bozor segmentlarida yuqori narxlarda sotish imkoniyati yaratiladi natijada ishlab chiqaruvchilar daromadining oshishiga olib keladi.

Shuningdek, mahsulotga qo‘shimcha qiymat yaratish ya‘ni yong‘oq yog‘i, yong‘oq pastasi yoki gazaklar kabi tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish natijasida yong‘oqni qayta ishlovchilar o‘z mahsulotlarni yuqori narxlarda sotishga, mahsulotlar turini kengaytirishga, bozor talabiga moslashishga va qayta ishlovchilar daromadini oshirishga imkon yaratadi. Raqamli savdo platformalaridan foydalanish, xalqaro standartlar va sertifikatlash tizimini joriy etish va logistika va yetkazib berish tizimlarini optimallashtirish orqali eksportchilarning daromad ulushini oshirish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishining “**Samarqand viloyatida yong‘oq ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari**” nomli uchinchi bobida Samarqand viloyatida yong‘oq ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari, yong‘oq ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy

¹⁰ Muallif ilmiy tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari hamda Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi subyektlarida yong‘oq ishlab chiqarish hajmining 2024-2030 – yillar uchun mo‘ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot davomida dehqonlarning yong‘oq yetishtirish tizimiga ko‘ra, tovar mahsuloti salmog‘i har bir xo‘jalikdagi yalpi yong‘oq yetishtirishning 91,18 foizini tashkil qiladi. Yo‘qotishlar jami yong‘oq mahsulotining 7,52 foizini tashkil qiladi. Yalpi yong‘oq mahsulotining atigi 1,3 foizi oilaviy iste‘mol uchun saqlangan. Tadqiqotda sotish samaradorligini quyidagi usul orqali aniqlashni taklif etdik:

$$\text{Sotish samaradorligi} = \frac{\text{Olingan sof foyda (OSF)}}{\frac{\text{Umumiy sotish xarajati (USX)}}{\text{Jami sotish marjasi (JSM)}} \cdot \text{Sotish zarari (SZ)}} \quad (1).$$

6-jadval.

Yong‘oq qiymat zanjiridagi qo‘shilgan qiymat taqsimoti¹¹

Tafsilotlar	An’anaviy kanalda mag‘iz shaklida			Takomillashgan kanalda mag‘iz shaklida		
	1-nav	2-nav	3-nav	1-nav	2-nav	3-nav
Mahsulotdan olingan sof foyda	8046	6958	4545	9202	8901	4598
Sotish xarajatlari	112	101	64	570	487	265
Sotishdagi yo‘qotishlar	104	87	56	100	89	48
Sotish marjasi	1782	1542	1007	4015	3910	2098
Sotish samaradorligi	0,82	0,66	0,65	1,13	1,09	1,07

Takomillashgan kanallarda har bir bosqichda mahsulotga qo‘shilgan qiymat ikki barobarga yaqin oshadi, bu esa eksport narxini oshiradi. Shuningdek, fermerlarning daromadlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta ishlovchilarga mahsulot sotganlarida ko‘proq bo‘ladi (6-jadval). Masalan, 1-nav yong‘oq bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshirilganda an’anaviy kanalda sof foyda 8046 so‘m va takomillashgan kanalda sof foyda 9202 so‘mni tashkil etdi.

Sotish samaradorligi “Olingan sof foyda (OSF)” sotish xarajatlari va yo‘qotishlarga nisbatan hisoblash orqali o‘lchanadi. Shu asosida ba’zi natijalar:

an’anaviy kanal bo‘yicha yong‘oq sotilganda fermerlarning sof daromadi pastroq, chunki vositachilar soni ko‘p, har bir bo‘g‘inda qo‘shimcha xarajatlar va yo‘qotishlar samaradorlikni pasaytiradi;

takomillashgan kanal bo‘yicha esa fermerlar mahsulotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta ishlovchilarga sotadilar va barcha navlarda sof qiymat sezilarli oshadi. Takomillashgan kanallarda har bir bosqichda mahsulotga qo‘shilgan qiymat ikki barobarga yaqin oshadi, bu esa eksport narxini oshiradi. Shuningdek, fermerlarning daromadlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta ishlovchilarga mahsulot sotganlarida ko‘proq bo‘ladi (7-jadval).

¹¹ Muallif hisob-kitobi va so‘rovnoma natijalariga asoslangan

Yong‘oqni turli kanallarda sotishda navlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlari¹²

Nav	Kanal turi	Qo‘shilgan qiymat (so‘m)
1-nav	An’anaviy kanal	1782 so‘m
	Takomillashgan kanal	4015 so‘m
2-nav	An’anaviy kanal	1542 so‘m
	Takomillashgan kanal	3910 so‘m
3-nav	An’anaviy kanal	1007 so‘m
	Takomillashgan kanal	2098 so‘m

Qo‘shimcha qiymat va eksport marketingi integratsiyasi orqali yong‘oq yetishtirish salohiyatidan ham ichki, ham xalqaro savdoda samarali foydalanish mumkin. Shu bilan birga, mahsulot tayyorlashdan yong‘oq eksportigacha bo‘lgan butun jarayonda bir qator muammolar mavjud. Eksportchilar tomonidan ta’kidlangan muammolar orasida qo‘shimcha qiymat uchun xomashyoning yetarli darajada ta’minlanmaganligi muhim muammo hisoblanadi. Sertifikatlangan mutaxassislar va suboptimal eksport bo‘yicha maslahat xizmatlari kabi malakali ishchilarning yetishmasligi, shuningdek, ishlab chiqarish markazlari yaqinida organik sertifikatlash agentliklarining yo‘qligi muammolarni yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, institusional kreditlar va subsidiyalarning qimmatligi va o‘zlashtirilishining kechiktirilishi xususiy korxonalar uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Dehqon → Tayyorlovchi → Qayta ishlovchi → Eksport bo‘g‘inlari quyidagicha tavsiflash mumkin:

an’anaviy kanal bo‘yicha dehqonlar vositachilarga mahsulotni arzon narxlarda sotadi va sotish samaradorligi past, yo‘qotishlar ko‘proq;

takomillashgan kanalda esa dehqonlar qayta ishlovchilarga mahsulotni bevosita yetkazib beradi, shuningdek sifat nazorati yaxshiroq, sotishdagi yo‘qotishlari kamroq. Qayta ishlash bosqichida mahsulot sifatini oshirish eksport narxlarini ko‘taradi.

Xarajatlarni kamaytirish qayta ishlovchilarga kreditlash va subsidiyalarni kengaytirish, bu esa mahsulotning xalqaro raqobatbardoshligini oshiradi.

Tahlillarga asoslanib, biz quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

An’anaviy kanaldan bosqichma-bosqich voz kechishlari va fermerlar mahsulotlarini qayta ishlovchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotishi lozim. Bu nafaqat sof daromadni oshiradi, balki sotish samaradorligini ham yaxshilaydi. Qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish va hududlarda qayta ishlash korxonalarini ko‘paytirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash muhim.


Yong‘oq yetishtirish va eksport qilish jarayonlarida xalqaro standartlarga asoslangan samarali boshqaruvni amalga oshirish uchun bir qator muhim yo‘nalishlarni joriy etish zarur. Shu bilan birga, mahsulotning Yevropa bozorlariga moslashuvchanligini ta’minlash uchun maxsus laboratoriyalar va tekshiruvlar

¹² Muallif hisob-kitobi va so‘rovnoma natijalariga asoslangan

amalga oshirilishi lozim.

Eksport talablarini tahlil qilish orqali bozor segmentlari, import tariflari va narxlash mexanizmlarini o‘rganish zarur. Bu xalqaro bozorlarda mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga yordam beradi. Mahsulotni qadoqlash va logistika jarayonlarini xalqaro talablar asosida tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Qadoqlash shakli, sifati va o‘lchamiga mos talablar belgilanishi, logistika tahlillari asosida esa mahsulot yetkazib berish muddati va miqdoriga oid optimal rejalar ishlab chiqilishi zarur. Shuningdek, xalqaro qayta ishlash va savdo kompaniyalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, uzoq muddatli shartnomalar tuzish va savdo uylari hamda distribyutorlar tarmoqlari bilan integratsiyani kuchaytirish eksportni kengaytirishga xizmat qiladi.

Yong‘oq ishlab chiqarish va eksport qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro grantlar va subsidiyalarni jalb qilish, shuningdek, xalqaro ko‘rgazmalar va tadbirlarda ishtirok etish orqali mahsulotni targ‘ib qilish muhim. Texnik yordam va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali eksport standartlariga mos texnologiyalarni ishga tushirish, monitoring va sifat nazoratini kuchaytirish mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga ko‘mak beradi. Bu yo‘nalishlarning barchasi yong‘oq mahsulotlarining sifatini yaxshilash, xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga yo‘naltirilgan (3-rasm).



3-rasm. Yong‘oqni qayta ishlash va eksport qilish ishlarini samarali tashkil qilish mexanizmlarini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy shartlari¹³

